

O'RTA OSIYODAGI IQTISODIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI VA IQTISODIY MAKTABLARNING SHAKLLANISHI

Kamolova Sayyora Axror qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs

Email:kamolovasayyora793@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda iqtisodiy qarashlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Tadqiqot qadimgi manbalar, jumladan Avesto, islom uyg'onish davri mutafakkirlari – Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino qarashlari, shuningdek sovet va mustaqillik davridagi iqtisodiy islohotlarini qamrab oladi. Shuningdek, tezisda mintaqada iqtisodiy tafakkurning tarixiy evolutsiyasi va zamonaviy iqtisodiy maktablar bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, iqtisodiy qarashlar, iqtisodiy tafakkur evolutsiyasi, iqtisodiy maktablar, Avesto, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlar.

Аннотация: В данной работе рассматриваются этапы формирования и развития экономических взглядов в Средней Азии. Исследование охватывает древние источники, в том числе Avesto, труды мыслителей эпохи исламского Возрождения — Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, а также экономические процессы советского и постсоветского периодов. В работе анализируется эволюция экономической мысли региона и её интеграция с современными экономическими школами.

Ключевые слова: Центральная Азия, экономические взгляды, эволюция экономической мысли, экономические школы, Авеста, Абу Наср аль-Фараби, Абу Райхан аль-Бируни, Абу Али ибн Сина, рыночная экономика, экономические реформы.

Abstract: This paper examines the stages of formation and development of economic thought in Central Asia. The study covers ancient sources, including Avesto, the works of Islamic Golden Age scholars — Abu Nasr al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, as well as the economic transformations of the Soviet and post-independence periods. The paper analyzes the evolution of economic thought in the region and its integration with modern economic schools.

Key words: Central Asia, economic views, evolution of economic thought, economic schools, Avesta, Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, Abu Ali ibn Sina, market economy, economic reforms.

Bugungi kunda O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, iqtisodiy islohotlar va institutsional o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etishda milliy iqtisodiy tafakkur an'analari va tarixiy tajribani o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan hududning tarixiy-iqtisodiy xususiyatlari va ijtimoiy qadriyatlarini inobatga olishga bog'liq.

O'rta Osiyo hududida iqtisodiy qarashlar qadim zamonlardan boshlab shakllanib, tarixiy taraqqiyot jarayonida izchil rivojlanib kelgan. Tadqiqotchilar fikricha, mintaqada dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning erta rivojlanishi iqtisodiy tafakkurning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Qadimgi manbalardan biri Avestoda mehnat, yerga egalik va boylik yaratish masalalari muhim ijtimoiy qadriyat sifatida talqin etiladi.

IX–XII asrlarda ilm-fan ravnaq topishi bilan iqtisodiy fikrlar ham nazariy jihatdan boyigan. Xususan, Abu Nasr al-Farobiy jamiyat va davlat boshqaruvida iqtisodiy muvozanat muhimligini ta'kidlagan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy xo'jalik yuritish va savdo munosabatlarini ilmiy kuzatish asosida tahlil qilgan. Keyingi davrlarda iqtisodiy siyosat amaliy boshqaruv tajribasi bilan boyigan, XX asrda esa markazlashgan reja tizimi ustuvor bo'ldi.

Mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni yangi iqtisodiy yondashuv va maktablarning shakllanishiga olib keldi. Shu bois O'rta Osiyoda

iqtisodiy qarashlar evolutsiyasini o'rganish mintaqqa iqtisodiy tafakkurining tarixiy bosqichlarini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo hududi qadimdan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan mashhur bo'lgan. Shu sababli, iqtisodiy hayot har doim jamiyatning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan. Qadimgi manbalarda, masalan, Avestoda mehnat, mulk va boylikni adolatli taqsimlash masalalari axloqiy qadriyatlar bilan bog'langan. Bu esa shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyo xalqining iqtisodiy tafakkuri qadimgi davrlardan jamiyat farovonligini e'tiborga olgan. Menimcha, bu davrda iqtisodiy qarashlar shunchaki amaliy ehtiyoj bilan emas, balki ijtimoiy adolat va axloqiy me'yorlar bilan shakllangan. Amir Temur davrida iqtisodiy siyosat markazlashgan boshqaruv bilan birga rivojlangan. Savdo yo'llari himoyalangan, shaharsozlik va hunarmandchilik rivojlangan, soliq tizimi tartibga solingan. Bu amaliy tajribalar O'rta Osiyoda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Menimcha, Temuriylar davri siyosati shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy qarashlar faqat nazariya emas, balki amaliy boshqaruv va strategik rejalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Rossiya imperiyasi davrida O'rta Osiyo iqtisodiyoti xomashyo yetkazib beruvchi hududga aylantirildi. Mahalliy ishlab chiqarish va savdo cheklangan edi. Shu davrda jadidlar harakati iqtisodiy modernizatsiya va tadbirkorlikni targ'ib qilgan. Mening fikrimcha, bu davr iqtisodiy tafakkur uchun o'zgarishlar davri bo'lib, u iqtisodiy bilim va innovatsiyalarni joriy qilish zaruratini oshirdi. Bu esa mintaqada iqtisodiy tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilishiga yordam bergan. Sovet davrida markazlashgan reja iqtisodiyoti hukmron bo'ldi. Karl Marx va Vladimir Lenin ta'limotlari asosida xususiy mulk bekor qilindi, ishlab chiqarish vositalari davlat tasarrufiga o'tdi. Besh yillik rejalashtirish tizimi iqtisodiy boshqaruvning asosiy vositasi bo'ldi. Sovet tizimi O'rta Osiyo iqtisodiy tafakkurini markazlashgan boshqaruv va nazariya bilan mustahkamladi, lekin bu ham ijodiy va mustaqil iqtisodiy fikrlash imkoniyatlarini chekladi. 1991 yildan so'ng O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshladi. Xususiy mulk va tadbirkorlik rivojlantirildi, bozor mexanizmlari va investitsiyalar jalb qilindi. Shu bilan birga, institutsional islohotlar orqali iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi.

Menimcha, zamonaviy iqtisodiy qarashlar nafaqat milliy rivojlanish, balki global iqtisodiy maktablar bilan uyg'unlashish orqali yanada boyidi. Bu esa O'rta Osiyoda iqtisodiy tafakkur tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy iqtisodiy maktablarning shakllanishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

O'rta Osiyodagi iqtisodiy qarashlar qadimgi davrdan boshlab uzluksiz rivojlanib kelgan. Qadimgi davrda iqtisodiy tafakkur axloqiy qadriyatlar va mehnatni qadrlashga asoslangan bo'lsa, IX–XII asrlarda ilm-fan va falsafa bilan uyg'unlashgan. Temuriylar davrida iqtisodiy siyosat amaliy boshqaruv bilan boyigan, XIX–XX asrlarda esa modernizatsiya va tadbirkorlik rivojiga e'tibor qaratilgan.

Sovet davrida markazlashgan reja iqtisodiyoti ustuvor bo'lgan bo'lsa, mustaqillik davrida bozor iqtisodiyoti va xususiy mulk rivojlanishi orqali iqtisodiy tafakkur yangi bosqichga ko'tarildi. Shu bilan O'rta Osiyo iqtisodiy qarashlari tarixiy tajriba va zamonaviy yondashuvlar uyg'unligi asosida shakllangan va bugungi kunda milliy iqtisodiy siyosatni rivojlantirish uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyodagi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi va iqtisodiy maktablarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, u mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Qadimgi davrlardan boshlab bu hududda shakllangan iqtisodiy fikrlar mehnat taqsimoti, savdo-sotiq, mulkchilik munosabatlari, adolatli taqsimot va davlatning iqtisodiy hayotdagi roli kabi masalalarni qamrab olgan. Umuman olganda, O'rta Osiyodagi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasini chuqur o'rganish bugungi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni ilmiy asoslash, milliy iqtisodiy modelni shakllantirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur mavzu iqtisodiy fanlar doirasida dolzarb va istiqbolli tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boymuhammedov Sh. Ancient economic ideas in Central Asia. – Tashkent, 2018. – 215 p.

2. Nazarovna X. L., Bobirovich N. B. TARIXIY IQTISODIY QARASHLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR //Shokh Articles Library.–2025.– T. 1. – №. 2.
3. Hakimov N., Amridinova D. TURKISTON JADIDLARINING IQTISODIY QARASHLARI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2022. – №. 2. – C. 8-8.
4. Akhmedov M. Soviet economic system in Central Asia. – Moscow, 2014. – 243 p.